O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MATEMATIKADAN AMALIY MAShG‘ULOTLAR

uslubiy ko‘llanma

Farg‘ona -2009

H.Mahmudov, Sh.Sobirov, T.Bakirov. Matematikadan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy ko‘llanma (kunduzgi bo‘lim bakalavr yo‘nalishlari uchun), Farg‘ona-2009, 48 b.

Ushbu o‘quv - uslubiy qo‘llanma bakalavriyatning kunduzgi bo‘lim bakalavr yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan. Amaliy mashg‘ulotlarni ўtkazish uchun har bir mavzu uchun bitta varianti namunasi echimi bilan berilgan va mustaқil echish uchun topshiriqlar keltirilgan.

Taqrizchilar: A.Abdurazzaqov - fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
A.A.Shermatov - fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu uslubiy qo‘llanma universitet o‘quv-uslubiy Kengashining 2009 yil __________ ____ - yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISh

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkammasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilingan. Bu hujjatlar oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari talabalarining bilim darajasini sifat jihatdan yanada yaxshilashga, amaliy malakalarini yuksaltirishga qaratilgandir.

Ushbu uslubiy qullanmalar nomatematik yo‘nalish talabalari uchun amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar va nazorat ishlarining variantlari berilgan. Ko’llanmada 15 ta mashgulot ko’rib chikilgan bo’lib, xar bir mashgulot uchun namunaviy misol va masala echib kursatilgan. Zarur xollarda formula va qoidalar uchun tushuntirish berilgan. $z=x^3+8u^3-6xu+5$ funktsiyaning ekstrimumlari hisoblansin.

Bo’lim oxirida nazorat mashgulotlari uchun 10 ta variantdan iborat o‘xshash misol va masalalar ko‘rsatilgan.Variantlardagi misol va masalalarni echish uchun kerak bo‘ladigan nazariy materiallarni o‘qituvchilar tomonidan yozilgan ma’ruzalar matni hamda talabalar tomonidan olingan konspektlar va quyidagi adabiyotlardan topish mumkin:

1. YO.U.Soatov «Oliy matematika» I q. T. «O‘qituvchi», 1992-496 b.
2. YO.U.Soatov «Oliy matematika» II q. T. «O‘qituvchi», 1994-416 b.
3. YO.U.Soatov «Oliy matematika» III q. T. «O‘qituvchi», 1996-640 b.
4. T.Jo‘raev, A.Sa’dullaev va boshqalar. «Oliy matematika asoslari» T. «O‘zbekiston» 1994 -280 b.
5. Danko P.Ye., Popov A.G., Kojevnikova T.Ya. «Vqsshaya matematika v uprajneniyax i zadachax» 1-2 ch. M.: Vqssh.shkola 1986, - 304 s.

Yuqoridagi keltirilgan adabiyotlardan olingan bilimlar natijasida amaliy mashg‘ulotlar muvaffaqiyatli bajariladi va shu bilan birga bo‘lim bo‘yicha oraliq va yakuniy nazoratlarga ham puxta tayyorgarlik ko‘riladi. Talabalar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan misol va masalalarning raqamlari o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

ANALITIK GEOMETRIYA VA CHIZIQLI ALGEBRA

1-AMALIY MAShG'ULOT
TEKISLIKDA DEKART KOORDINATALARI SISTEMASI VA TO'G'RI CHIZIQ TENGLAMALARI.

Masala. Uchlari A (4; 1), B (16; -8) va C (14; 6) nuqtalarda bo'lgan ABC uchburchak berilgan. ABC uchburchakda

1) BC tomonning uzunligini toping;
2) AB va BC tomonning tenglamasini tuzing;
3) B burchakni radianlarda hisoblang;
4) Uchburchakning C uchidan o'tuvchi va AB tomonga parallel hamda perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqlar tenglamasini tuzing;
5) ABC uchburchak yuzini hisoblang.



Yechish: Avval ABC uchburchakni chizib olamiz.

1. Ikkita M_1 $(x_1;u_1)$ va M_2 $(x_2;u_2)$ nuqtalar orasidagi masofa ushbu

$$d = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2} \qquad (1)$$

formula yordamida topiladi. Masala shartiga ko'ra B (16, -8), C (14;6):

x_1=16; x_2=14; y_1=-8; y_2=6.

Bu qiymatlarni (1) formulaga qo'yib, topamiz:

$$|BC| = \sqrt{(14-16)^2 + (6+8)^2} = \sqrt{(-2)^2 + (14)^2} = \sqrt{200} = 10\sqrt{2}$$

Demak, $|BC|$ $=10\sqrt{2}$ (uzunlik birlik).

2. Ikki M_1 va M_2 nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi

$$\frac{x - x_1}{x_2 - x_1} = \frac{y - y_1}{y_2 - y_1} \qquad (2)$$

ko'rinishga ega. Bu formuladan foydalanib AB tomonning tenglamasini tuzamiz.

Shartga ko'ra A (4;1), V (16; -8); x_1=4, y_2=16, y_1=1, y_2=-8.

U holda $\dfrac{x-4}{16-4}=\dfrac{y-1}{-8-1}$; $\dfrac{x-4}{12}=\dfrac{y-1}{-9}$; $3x-12=-4y+4$;

$$y=-\frac{3}{4}x+4$$

Shunga o‘xshash BC tomonning tenglamasi ham tuziladi.

$$\frac{x-4}{14-16}=\frac{y-(-8)}{6-(-8)};\qquad \frac{x-16}{-2}=\frac{y+8}{14};\qquad y+8=-7x+112;$$

$$y=-7x+104$$

3. To‘g‘ri chiziqni burchak koeffitsientli tenglamasi

$y=k_1x+b_1$ va $y=k_2x+b_2$

ko‘rinishga ega bo‘lgan ikkita to‘g‘ri chiziq orasidagi α burchak ushbu

$$tga=\frac{k_2-k_1}{1+k_1\cdot k_2} \qquad (3)$$

formulaga asosan topiladi. Masalaning 2-qismida ko‘rdikki, BC tomon tenglamasi y=-7x+104, AB tomon tenglamasi y=-¾x+4, bulardan

$k_1=-7$, $k_2=-¾$

Bu qiymatlarni (3) ga qo‘yib

$$tga=\frac{-\frac{3}{4}+7}{1+\left(-\frac{3}{4}\right)\cdot(-7)}=1;\qquad tga=1;\qquad a=arctg1=\frac{p}{4};$$

$$a=\angle B=\frac{p}{4}$$

ekanini topamiz.

2. $M_0(x_0,y_0)$ nuqtadan berilgan yo‘nalish bo‘yicha o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi:

$$y-y_0=k(x-x_0) \qquad (4)$$

ko‘rinishda edi. Masala shartiga ko‘ra C (14; 6) $x_0=14$ va $y_0=6$. Bu koordinatalarni (4) formulaga qo‘yib va AB tomon tenglamasida burchak koeffitsienti k=¾ ekanini hisobga olib, ikki to‘g‘ri chiziqning parallellik ($k_1=k_2$) va perpendikulyarlik shartidan $\left(k_1=-\dfrac{1}{k_2}\right)$ foydalanib, uchburchakning C uchidan AB tomonga parallel to‘g‘ri chiziq tenglamasi

$$y-6=-\frac{3}{4}\cdot(x-14);\qquad \text{yoki}\qquad y=-\frac{3}{4}x+\frac{33}{2},$$

shuningdek AB ga perpendikulyar bo‘lgan $\left(k=\dfrac{4}{3}\right)$ to‘g‘ri chiziq tenglamasi

$$y-6=\frac{4}{3}\cdot(x-14)\quad \text{yoki}\quad y=\frac{4}{3}x-\frac{38}{3}$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

3. ABC uchburchakni yuzini topish uchun AK balandlik uzunligini topishimiz kerak. Buning uchun $M_0(x_0, y_0)$ nuqtadan Ax+By+C=0 to‘g‘ri chiziqqacha bo‘lgan masofani

$$d = \frac{|Ax_0 + By_0 + C|}{\sqrt{A^2 + B^2}} \qquad (5)$$

formuladan foydalanamiz. Bunda $x_0=4$, $y_0=1$. BC tenglamani esa 7x+y-104=0 ekanini e'tiborga olib, (5) formulaga asosan masofani topamiz.

$$d = \frac{|7 \cdot 4 + 1 - 104|}{\sqrt{49+1}} = \frac{|-75|}{5\sqrt{2}} = \frac{15}{\sqrt{2}} = \frac{15\sqrt{2}}{2} \text{ (uz.b.)}$$

Demak, ABC uchburchak yuzi

$$S = \frac{1}{2}|BC| \cdot d = \frac{1}{2} 10\sqrt{2} \cdot \frac{15\sqrt{2}}{2} = 75 \text{ (kv. birligi)}$$

2- mashg'ulot.
Tekisliklikda egri chiziq tenglamalar
E L L I P S

Ixtiyoriy nuqtasidan fokuslar deb ataluvchi berilgan ikki nuqtagacha masofalari yig‘indisi o‘zgarmas (bu yig‘indi fokuslar orasidagi masofadan katta) bo‘lgan nuqtalarning geometrik o‘rni tekislikda **ellips** deb ataladi.

Ellips tenglamasi fokuslar abstsissa o‘qida yotganda rasmdagi

shaklda bo‘lib, uning tenglamasi $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (a>b)$



bunda a - katta yarim o‘q uzunligi, b- kichik yarim o‘q uzunligi a,b,c parametrlar $a^2 - b^2 = c^2$ (bunda s- fokuslar orasidagi masofa yarmi) munosabat bilan bog‘langan. $e = \frac{c}{a} = \frac{\sqrt{a^2 - b^2}}{a} < 1$ qiymat ellipsning ekstsentrisiteti deb ataladi. Agar fokuslar ordinata o‘qida yotsa ellipsning shakli:



tenglamasi $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ (b>a) kabi ko‘rinishga ega. Ellipsni $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ tenglamasiga asosan yasash uchun: 1) Ellipsning a va b yarim o‘qlari bo‘yicha uchlari $A_1(-a;0)$, $A_2(a;0)$, $B_1(0;-b)$, $B_2(0;b)$.

2) Bu nuqtalardan koordinata o‘qlariga parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazib, hamda markazi koordinatalar boshida bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak yasaladi.

3) A_1,A_2,B_1,B_2 nuqtalar orqali o‘tuvchi egri chiziq chiziladi:

4) Biror $N(x_1;y_1)$ nuqtaning ellipsda yotish yotmasligi

$\frac{x_1^2}{a^2}+\frac{y_1^2}{b^2}=1$ munosabatini tekshirish orqali aniqlanadi:

a) Agar $\frac{x_1^2}{a^2}+\frac{y_1^2}{b^2}>1$ munosabat o‘rinli bo‘lsa, H nuqta ellips tashqarida.

b) Agar $\frac{x_1^2}{a^2}+\frac{y_1^2}{b^2}<1$ munosabat o‘rinli bo‘lsa H nuqta ellips ichida yotadi.

$|MF_2|=r_2$ - o‘ng fokal radius-vektori $r_2=a-ex$ formula bilan va $|MF_1|=r_1$ - chap fokal radius-vektor $r_1=a+ex$ formula bilan topiladi.



Masala: $\frac{x^2}{100}+\frac{y^2}{25}=1$ ellipsning x+2y-14=0 to‘g‘ri chiziq bilan kesishgan nuqtalari orasidagi masofani, ellipsning ekstsentritetini kesishgan nuqtalarning fokal radius-vektorlarini toping, chizmada tasvirlang.

Yechish: Ma’lumki ikkita chiziqning kesishgan nuqtasini topish uchun berilgan ikki tenglamani sistema qilib echamiz:

$$\begin{cases}\dfrac{x^2}{100}+\dfrac{y^2}{25}=1\\ x+2y-14=0\end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases}x^2+4y^2=100\\ x+2y=14\end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases}x^2+4y^2=100\\ x=14-4y\end{cases} \Leftrightarrow (14-2y)^2+4y^2=100$$

$4(7-y)^2+4y^2=100 \Leftrightarrow (7-y)^2+y^2=25 \Leftrightarrow 49-14y+y^2+y^2=25 \Leftrightarrow 2y^2-14y+24=0 \Leftrightarrow$
$y^2-7y+12=0, y_{1,2}=\frac{7}{2}\pm\frac{1}{2}, y_1=4,\ y_2=3,\ x_1=14-2\quad y_1=6,$
$x_2=8$,
demak, kesishgan nuqtalar $M_1(6;4)$ va $M_2(8;3)$. M_1va M_2 nuqtalar orasidagi masofa $|M_1M_2|=\sqrt{(8-6)^2+(3-4)^2}=\sqrt{4+1}=\sqrt{5}=2.2$ (kami bilan) ga teng. Endi ellipsning ekstsentritetini

$e=\frac{c}{a}=\frac{\sqrt{a^2-b^2}}{a}$ formula bilan topamiz

$$e=\frac{\sqrt{10^2-5^2}}{10}=\frac{\sqrt{100-25}}{10}=\frac{\sqrt{75}}{10}=\frac{5\sqrt{3}}{10}=\frac{\sqrt{3}}{2}$$

Fokal radius vektorlarni $r_2=a$-ex va $r_1=a$+ex formulalar bilan topamiz.

M_1 ning o‘ng fokal radius $r_2=10-\frac{\sqrt{3}}{2}6=10-3\sqrt{3}$ chap fokal radius $r_1=10+\frac{\sqrt{3}}{2}6=10+3\sqrt{3}$. Xuddi shunday M_2 uchun $r_2=10-\frac{\sqrt{3}}{2}8=$
$=10-4\sqrt{3}$ va $r_1=10+\frac{\sqrt{3}}{2}8=10+4\sqrt{3}$, natijalarni hosil qilamiz. Endi masalaning chizmasini yasaymiz.



GIPERBOLA

Ixtiyoriy nuqtasidan fokuslar deb ataluvchi berilgan ikki nuqtagacha masofalari ayirmasining absolyut qiymati o‘zgarmas bo‘lgan (fokuslar orasidagi masofadan kichik) nuqtalarning geometrik o‘rni tekislikda **giperbola** deb ataladi.

Fokuslar obtsissa o‘qida yotganda quyidagi shaklda bo‘lib, tenglamasi

$$\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}=1.$$



Bunda *a*- haqiqiy yarim o‘q uzunligi, b- mavhum yarim o‘q uzunligi. *a*,b,c parametrlar orsidagi bog‘lanish $b^2 = c^2 - a^2$, bunda s fokuslar orasidagi masofani yarmi. Giperbola ekstsentriteti $e=\frac{c}{a}=\frac{\sqrt{a^2+b^2}}{a}>1$ ga teng. Assimptotalari u=$\pm\frac{b}{a}x$ tenglamalar bilan ifodalanadi. Teng tomonli giperbola assimptotalari tenglamalari u=$\pm x$. Fokuslar ordinata o‘qida yotganda grafigi



shaklda bo‘lib, uning tenglamasi $\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}=1$ yoki $\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}=-1$,

a-haqiqiy yarimo‘q uzunligi, b- mavhum yarimo‘q uzuligi. Assimptotalari u=$\pm\frac{b}{a}x$ bo‘lgan.

$\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}=1$ giperbola tenglamasi bo‘yicha uni quyidagicha chiziladi:

1. *a* va b yarim o‘qlar topiladi va ular bo‘yicha $A_1(-a;0)$, $A_2(a;0)$, $B_1(0;-b)$, $B_2(0;b)$ nuqtalar belgilanadi.

2. Tomonlari 2a va 2b bo‘lib, markazi koordinatalar boshida bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak yasaladi.
3. Bu to‘rtburchakning diogannallari, ya’ni giperbola assimptotalari yasaladi.
4. $A_1(-a;0)$ va $A_2(a;0)$ uchlardan o‘tuvchi va assimptotalarga yaqinlashib boruvchi egri chiziqlar chiziladi.
5. $|MF_2| = r_2$ - o‘ng fokal radius-vektori $r_2=a$ - ex, $|MF_1| = r_1$ - chap fokal radius-vektor r_1=ex+a formula bilan topiladi.

Masala: Giperbolaning ekstsentrisiteti $\sqrt{2}$ ga teng va M($\sqrt{3};\sqrt{2}$) nuqtadan o‘tuvchi giperbola tenglamasi tuzilsin va chizma yasalsin.

YeCHISh: Ekstsentrisitet ta’rifiga ko‘ra $\frac{c}{a}=\sqrt{2}$, yoki $s^2=2a^2$. Lekin $s^2=a^2+b^2$, demak $a^2+b^2=2a^2$ yoki $a^2=b^2$, ya’ni giperbola teng tomonli M nuqtaning giperbolada yotganligidan

$$\frac{(\sqrt{3})^2}{a^2}-\frac{(\sqrt{2})^2}{b^2}=1 \Leftrightarrow \frac{3}{a^2}-\frac{2}{b^2}=1 \Leftrightarrow \frac{3}{a^2}-\frac{2}{a^2}=1 \Leftrightarrow \frac{1}{a^2}=1 \Leftrightarrow a^2=1$$

demak $\frac{x^2}{1}-\frac{y^2}{1}=1$ yoki $x^2 - y^2=1$, a=1, b=1 larga asosan tomonlari 2 va 2 bo‘lgan simmetriya markazi koordinatalar boshida bo‘lgan giperbolaning asosiy to‘rtburchagi kvadratni yasab, uning diogonallari- giperbolaning assimptotalarini o‘tkazamiz va giperbolani yasaymiz.

PARABOLA

Ixtiyoriy nuqtasidan fokuslar deb ataluvchi berilgan nuqtagacha va direktrissa deb ataluvchi berilgan to‘g‘ri chiziqqacha masofalari bir xil bo‘lgan nuqtalarning geometrik o‘rni tekislikda **parabola** deb ataladi (fokus direktrissada yotmaydi). OX o‘qi fokusdan o‘tib, direktrissaga perpendikulyar bo‘lganda uning shakli quyidagicha bo‘ladi:



Tenglamasi y^2=2rx, bunda r- parametr - fokusdan direktrissagacha bo‘lgan masofa. r>0 da parabolaning uchi koordinatalar boshida, simmetriya o‘qi OX va tarmoqlari o‘ngga qaragan. Tenglamasi y^2 = - 2rx (r>0) bo‘lgan parabolaning uchi koordinatalar boshida simmetriya o‘qi OX va tarmoqlari chapga qaragan.



OY o‘qi fokusdan o‘tib, direktrissa perpendikulyar bo‘lgan holda x^2=2ru parabolaning tarmoqlari yuqoriga qaragan, x^2 = - 2ru parabola- niki esa pastga qaragan, har ikki holda ham simmetriya o‘qi OY va uchi koordinatalar boshida yotadi.





Masala. u^2=12x parabola berilgan. Fokusdan o‘tib, OY o‘qqa perpendikulyar bo‘lgan vektor uzunligi topilsin, parabola yasalsin.

YeCHISh: Shartga ko‘ra vatar fokusdan o‘tadi va parabola o‘qiga perpendikulyar, shuning uchun vatarning parabola bilan kesishgan nuqtalari abtsissasi fokus abtsissasi bilan bir xil bo‘ladi. Parabola tenglamasidan fokus koordinatalarini topamiz.

u^2=12x, 2r=12 $\Rightarrow \frac{p}{2}=3 \Rightarrow F(3,0)$. Vatarning parabola bilan kesishgan nuqtalarini topish uchun parabola tenglamasiga x=3 ni qo‘yamiz:



Demak kesishgan nuqtalar R$_0$(3;6) va A(3;-6). Vatar uzunligi R$_0$ A=2FR$_0$= $2\cdot 6$ =12

3-mashg‘ulot.

CHiziqli tenglamalar sistemasini echish uchun Gauss va Kramer usuli.

Misol. Berilgan tenglamalar sistemasini kami bilan ikki xil usulda eching.

$$\begin{cases} 2x_1+x_2-x_3=1 \\ 3x_1+2x_2-2x_3=1 \\ x_1-x_2+2x_3=5 \end{cases}$$

YeCHISh. I. **Gauss usuli** (noma’lumlarni ketma-ket yo‘qotish usuli). Birinchi tenglamani 2 ga bo‘lamiz.

$$\begin{cases} x_1+0{,}5x_2-0{,}5x_3=0{,}5 \\ 3x_1+2x_2-2x_3=1 \\ x_1-x_2+2x_3=5 \end{cases}$$

Endi hosil bo‘lgan sistemada 1 chi tenglamani 3 ga ko‘paytirib 2-chi tenglamadan va I chi tenglamani o‘zini 3 tenglamadan ayiramiz.

$$\begin{cases} x_1+0{,}5x_2-0{,}5x_3=0{,}5 \\ 0{,}5x_2-0{,}5x_3=-0{,}5 \\ -1{,}5x_2+2{,}5x_3=4{,}5 \end{cases}$$

Ikkinchi tenglamaning barcha hadlarini 0,5 ga bo‘lib

$$\begin{cases} x_1 + 0{,}5x_2 - 0{,}5x_3 = 0{,}5 \\ x_2 - x_3 = -1 \\ -1{,}5x_2 + 2{,}5x_3 = 4{,}5 \end{cases}$$

sistemani hosil qilamiz va shu ikkinchi tenglamani -1,5 ga ko‘paytiramiz va uchinchi tenglamadan ayiramiz va natija ushbu

$$\begin{cases} x_1 + 0{,}5x_2 - 0{,}5x_3 = 0{,}5 \\ \qquad x_2 - x_3 = -1 \\ \qquad\quad x_3 = 3 \end{cases}$$

sistemani hosil qilamiz. Bundan esa ketma-ket quyidagilarni topamiz.

$$x_3 = 3 \quad ; \quad x_2 = -1 + x_3 = -1 + 3 = 2;$$
$$x_1 = 0{,}5 = 0{,}5x_2 + 0{,}5x_3 = 0{,}5 - 1 + 1{,}5 = 1, \quad x_1 = 1$$

Kramer usuli. Noma’lumlar oldida turgan koeffitsentlardan tuzilgan asosiy determinantni tuzamiz va uni hisoblaymiz.

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2 & 1 & -1 \\ 3 & 2 & -2 \\ 1 & -1 & 2 \end{vmatrix} = 8 - 2 + 3 + 2 - 4 - 6 = 1$$

Endi yordamchi $\Delta_{x_1}, \Delta_{x_2}, \Delta_{x_3}$ determinantlarni tuzib hisoblaymiz

$$\Delta_{x_1} = \begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 1 & 2 & -2 \\ 5 & -1 & 2 \end{vmatrix} = 4 - 10 + 1 + 10 - 2 - 2 = 1,$$

$$\Delta_{x_2} = \begin{vmatrix} 2 & 1 & -1 \\ 3 & 1 & -2 \\ 1 & 5 & 2 \end{vmatrix} = 4 - 2 - 15 + 1 + 20 - 6 = 2,$$

$$\Delta_{x_3} = \begin{vmatrix} 2 & 1 & 1 \\ 3 & 2 & 1 \\ 1 & -1 & 5 \end{vmatrix} = 20 + 1 - 3 + 2 - 15 + 2 = 3.$$

Kramer formulasiga asosan

$$x_1 = \frac{\Delta_{x_1}}{\Delta} = \frac{1}{1} = 1, x_2 = \frac{\Delta_{x_2}}{\Delta} = \frac{2}{1} = 2, x_3 = \frac{\Delta_{x_3}}{\Delta} = \frac{3}{1} = 3$$

qiymatlarni hisoblab topamiz.

4-mashg'ulot .
Funktsiya aniqlanish sohasini topish.

Misol. $y=\sqrt{1-x^2}+\log_3 x$
funktsiyaning aniqlanish sohasini toping.

YECHISH. Mazkur funktsiya ikkita funktsiya yig'indisidan iborat. Ulardan birini aniqlanish sohasi $1-x^2\geq 0$ munosabatni qanoatlantiradigan barcha haqiqiy sonlar to'plamidan iborat. Ya'ni, M_1 to'plam $-1\leq x\leq 1$ tengsizlikni qanoatlantiradigan barcha x nuqtalar to'plamidir. Shunday qilib, $M_1=[-1,1]$

Ikkinchi qo'shiluvchi $\log_3 x$ funktsiyasining aniqlanish sohasi $M_2=(0,+\infty)$ intervaldan iborat. Demak, berilgan funktsiyaning aniqlanish sohasi barcha $x\in M_1$, $x\in M_2$ nuqtalardan iborat M to'plamdir, yoki $Dy=M_1\cap M_2=(0,1]$ bo'ladi.

AMALIY MAShG'ULOTLAR UCHUN MISOL VA MASALALAR

I-topshiriq.

Masalalardan ABC uchburchak uchlarining koordinatalari berilgan.
ABC uchburchakda қuydagilar aniқlansin:
1) AB tomonining uzunligini toping.
2) AB va BC tomonlarining tenglamasini tuzing.
3) B burchakni radianlarda hisoblang.
4) Uchburchakning C uchidan o'tib AB tomonga parallel, perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamalarini tuzing.
5) Shaklni chizing va ABC uchburchak yuzasini hisoblang.

1.1. A (-5;-3)	B (4; -12),	C (8;0)
1.2. A (-5; 7)	B (7; -2),	C (11;20)
1.3. A (-12;-1),	B (0; -10),	C (4; 12)
1.4. A (-7; 4),	B (5; -5),	C (3; 9)
1.5. A (0; 3),	B (12;-6),	C (10; 8)
1.6. A (-5; 9),	B (7; 0),	C (5; 14)
1.7. A (-10; 5),	B (2 ; -4),	C (0; 10)
1.8. A (6; 8),	B (6; -1),	C (4; 13)
1.9. A (-2; 7),	B (10; -2),	C (8; 12)
1.10. A (-3; 10),	B (9; 1),	C (7;15)

2-topshiriq.

Ellipsga doir masalalarni eching.
2.1. O'qlari $2a=10$,$2b=4$ bo'lgan, fokuslari OY o'qida yotuvchi ellips tenglamasi tuzilsin.
2.2. Fokuslari orasidagi masofasi 10 ga teng bo'lgan (ular OX o'qida yotadi) va katta o'qi 12 ga teng bo'lgan ellips tenglamasini tuzing.
2.3 Yarimo'qlari yig'indisi 25, fokuslarini koordinatalari ($\pm 5;0$) bo'lgan ellips tenglamasi tuzilsin.
2.4 Fokuslari OX o'qida yotib ($2;2\sqrt{2}$) nuqtadan o'tuvchi va kichik o'qi 6 ga teng bo'lgan ellips tenglamasi tuzilsin.

2.5.($\sqrt{2}$;2) va (2;$\sqrt{3}$) nuqtalardan o‘tuvchi fokuslari OX o‘qida yotuvchi ellips tenglamasi tuzilsin.

2.6. $\frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{9}=1$ va $\frac{x^2}{16}+\frac{y^2}{81}=1$ ellipsning uchlari koordinatalarini va o‘qlari uzunliklarini toping.

2.6. $\frac{x^2}{12}+\frac{y^2}{3}=1$ va $\frac{x^2}{10}+\frac{y^2}{26}=1$ ellipsning fokuslari koordinatalarini va fokuslari orasidagi masofani toping.

2.7. $\frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{9}=1$ ellipsda shunday nuqta topingki, uning fokal radius vektorlari ayirmasi 6,4 ga teng bo‘lsin.

2.8. $\frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{16}=1$ ellipsning chap fokusi va quyi uchidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasini tuzing.

2.9. $x+5=0$ to‘g‘ri chiziqda shunday nuqta topingki, bu nuqta $\frac{x^2}{20}+\frac{y^2}{4}=1$ ellipsning chap fokusidan va yuqori uchidan baravar uzoqlikda bo‘lsin.

3-topshiriq.

Giperbolaga doir misollarni eching:

3.1. Fokuslari OX o‘qida yotgan, haqiqiy o‘qi 12 va fokuslari orasidagi masofa 20 bo‘lgan giperbola tenglamasi tuzilsin va chizma yasalsin.

3.2.Fokuslari OX da yotgan, mavhum o‘qi 8ga va ekstsentrisiteti $\frac{3\sqrt{5}}{5}$ ga teng bo‘lgan giperbola tenglamasi tuzilsin va chizma yasalsin.

3.3.Agar: 1) yarimo‘qlar yig‘indisi 7 va fokuslar orasidagi masofa 10 ga teng bo‘lsa, 2) yarimo‘qlar ayrimasi 4 va fokuslar orasidagi masofa 40 bo‘lsa giperbola tenglamasi tuzilsin va chizma yasalsin.

3.4.Fokuslari ($\pm$5;0), assimptotalari $y=\pm\frac{4}{3}x$ bo‘lgan giperbola tenglamasi tuzilsin va chizma yasalsin.

3.5.Fokuslar OY o‘qida bo‘lib, (-$\sqrt{3}$;-$\sqrt{5}$) nuqtadan o‘tuvchi teng tomonli bo‘lgan giperbola tenglamasi tuzilsin va yasalsin.

3.6. $\frac{x^2}{9}-\frac{y^2}{16}=-1$ giperbolaning uchlari, fokuslari va asimptotalari topilsin.

3.7.Giperbolaning assimptotalari orasidgi burchak 60^0. Uning ekstsentrisiteti topilsin.

3.8. $\frac{x^2}{64}-\frac{y^2}{36}=1$ giperbolaning chap tarmog‘ida shunday nuqta topingki, o‘ng fokal radius vektori 18 ga teng bshlsin.

3.9.Agar giperbolaning ekstsentrisiteti 2ga teng bo‘lsa va fokuslari $\frac{x^2}{25}+\frac{y^2}{9}=1$ ellipsning fokuslari bilan ustma-ust tushsa giperbolaning tenglamasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi.

3.10.M(0;-1) nuqta va $3x^2$-$4y^2$=12 giperbolaning uchidan to‘g‘ri chiziq o‘tkazilgan. Bu to‘g‘ri chiziqning giperbola bilan kesishgan ikkinchi nuqtasi topilsin.

4-topshiriq.

Misollarda parabolaga doir misollarni eching:

4.1.y^2=16x parabola bilan 2x-y+2=0 to‘g‘ri chiziq kesishgan nuqtalari topilsin.

4.2.y^2=12x va x^2=12y parabolalarning kesishgan nuqtalari topilsin.

4.3.Uchi koordinatalar boshida, simmetriya o‘qi OY da bo‘lgan 1 va 3 chorak bissektrisasidan $8\sqrt{2}$ uzunlikdagi vatar kesuvchi parabola tenglamasi yozilsin.

4.4.Fokusi 4x-3y-4=0 to‘g‘ri chiziqning OX o‘qi bilan kesishgan nuqtasida bo‘lgan parabola tenglamasini yozing.

4.5. y^2=8x parabolada shunday nuqtani topingki, uning direktrissadan parabolagacha bo‘lgan masofasi 4ga teng bo‘lsin.

4.7.Uchi koordinatalar boshida, simmetriya o‘qi OX bo‘lgan va y=x to‘g‘ri chiziqdan $4\sqrt{2}$ uzunlikdagi vatar ajratuvchi parabola tenglamasi tuzilsin.

4.8.y^2=2x parabola koordinatalar boshidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan 3/4 uzunlikdagi vatar ajratadi. Shu to‘g‘ri chiziq tenglamasi tuzilsin.

4.9.Simmetriya o‘qiga perpendikulyar bo‘lib, uchi va fokusi orasidagi masofani teng ikkiga bo‘luvchi vatarning uzunligi 1 ga teng bo‘lgan parabola tenglamasi tuzilsin.

4.10y^2=32x parabolada shunday nuqtani topingki, undan 4x+3y+10=0 to‘g‘ri chiziqqacha masofa 2ga teng bo‘lsin.

4.11.y^2=3x parabola bilan y=x to‘g‘ri chiziqlarni kesishish nuqtalarining koordinatalarini toping.

5-topshiriq.

Misollarda chiziqli tenglamalar sistemasini har birini kamida 2 xil usul bilan eching.

5.1. $\begin{cases} 3x_1 + 2x_2 + x_3 = 5 \\ 2x_1 + 3x_2 + x_3 = 1 \\ 2x_1 + x_2 + 3x_3 = 11 \end{cases}$ 5.2. $\begin{cases} 2x_1 - x_2 - x_3 = 4 \\ 3x_1 + 4x_2 - 2x_3 = 11 \\ 3x_1 - 2x_2 + 4x_3 = 11 \end{cases}$

5.3. $\begin{cases} 7x_1 - 5x_2 = 31 \\ 4x_1 + 11x_2 = -43 \\ 2x_1 + 3x_2 + 4x_3 = -20 \end{cases}$ 5.4. $\begin{cases} x_1 - x_2 + 3x_3 = -1 \\ 2x_1 - x_2 + 2x_3 = -4 \\ 4x_1 + x_2 + 4x_3 = -2 \end{cases}$

5.5. $\begin{cases} x_1 - 4x_2 - 2x_3 = -3 \\ 3x_1 + x_2 + x_3 = 5 \\ -3x_1 + 5x_2 + 6x_3 = 7 \end{cases}$ 5.6. $\begin{cases} 4x_1 - 3x_2 + 2x_3 = 9 \\ 2x_1 + 5x_2 - 3x_3 = 4 \\ 5x_1 + 6x_2 - 2x_3 = 18 \end{cases}$

5.7. $\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 = 1 \\ 8x_1 + 3x_2 - 6x_3 = 2 \\ -4x_1 - x_2 + 3x_3 = -3 \end{cases}$ 5.8. $\begin{cases} x_1 - 2x_2 + 3x_3 = 6 \\ 2x_1 + 3x_2 - 4x_3 = 20 \\ 3x_1 - 2x_2 - 5x_3 = 6 \end{cases}$

5.9. $\begin{cases} 3x_1 + 4x_2 + 3x_3 = -3 \\ 2x_1 - x_2 + 3x_3 = -1 \\ x_1 + 5x_2 + x_3 = 0 \end{cases}$ 5.10 $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 4x_3 = 31 \\ 5x_1 + x_2 + 2x_3 = 20 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 = 10 \end{cases}$

MATEMATIK ANALIZ VA DIFFERENTSIAL XISOB

5-mashg‘ulot.
Limitlar nazariyasi

Misol. Lopital qoidasidan foydalanmay ushbu limitlarni hisoblang.

$$\lim_{x\to\infty}\frac{5x^2+6x+1}{6x^2+4x+2} \quad \text{va} \quad \lim_{x\to 0}\frac{1-\cos x}{x^2}$$

YECHISH. Birinchi misolda $\frac{\infty}{\infty}$, ikkinchisida esa $\frac{0}{0}$ ko‘rinishdagi aniqmaslikka olib keladigan limitlar ekani ko‘rinib turibdi. Bularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblab bo‘lmaydi. Shuning uchun bu aniqlanmasliklarni «ochishga», ya’ni funktsiya sur’ati va maxrajida ba’zi bir shakl almashtirishlar bajarishga to‘g‘ri keladi. Birinchi misolda kasrning sur’at va maxrajini x^2 ga bo‘lamiz. Natijada:

$$\lim_{x\to\infty}\frac{5x^2+6x+1}{6x^2+4x+2}=\lim_{x\to\infty}\frac{5+\frac{6}{x}+\frac{1}{x^2}}{6+\frac{4}{x}+\frac{2}{x^2}}=\frac{\lim\limits_{x\to\infty}\left(5+\frac{6}{x}+\frac{1}{x^2}\right)}{\lim\limits_{x\to\infty}\left(6+\frac{4}{x}+\frac{2}{x^2}\right)}=\frac{5}{6}$$

ekanini hisoblab topamiz. Ikkinchi misolda esa suratida $1-\cos x=2\sin^2\frac{x}{2}$ shakl almashtirish ishlatamiz va $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\sin x}{x}=1$ ajoyib limitdan foydalanamiz, ya’ni:

$$\lim_{x\to 0}\frac{1-\cos x}{x^2}=\lim_{x\to 0}\frac{2\sin^2\frac{x}{2}}{x^2}=\lim_{x\to 0}\left[\frac{1}{2}\cdot\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}\cdot\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}\right]=\frac{1}{2}\lim_{x\to 0}\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}\cdot\lim_{x\to 0}\frac{\sin\frac{x}{2}}{\frac{x}{2}}=\frac{1}{2}\cdot 1\cdot 1=\frac{1}{2}$$

6-mashg’ulot.
Funktsiyani uzluksizligi va limiti.

Misol. $y=\frac{x}{x-4}$ funktsiya - ax ning $x_1=4$ va $x_2=5$ qiymatlari berilgan. Argumentning berilgan qiymatlarida funktsiyaning:

1. Uzluksiz yoki uzilishga ega ekanini aniqlang.
2. Uzilish nuqtalarida bir tomonli limitlarni hisoblang.
3. Sxematik chizmasini chizing.

YECHISH. $y=\frac{x}{x-4}$ funktsiya x=4 nuqtada uzilishga ega. CHunki funktsiya bu nuqtada aniqlanmagan.

Uni o‘ng va chap limitlarini hisoblaymiz.

$$\lim_{x\to 4-0}\frac{x}{x-4}=-\infty, \qquad \lim_{x\to 4+0}\frac{x}{x-4}=+\infty,$$

Demak, chapdan ham o‘ngdan ham funktsiya chekli limitga ega emas ekan. Bundan esa bu uzilishni II-tur uzilish ekanligi kelib chiqadi. Endi funktsiyaning $x_2=5$ nuqtadagi xususiy va limitik qiymatlarini topamiz.

$$y(5)=\frac{5}{5-4}=5$$

$$\lim_{x\to 5}\frac{x}{x-4}=\frac{\lim\limits_{x\to 5}x}{\lim\limits_{x\to 5}(x-4)}=\frac{5}{1}=5$$

Demak, funktsiya x=5 nuqtada uzluksiz.

Funktsiya grafigining sxematik chizmasini qiymatlari orqali quyidagicha chizamiz.



7 mashg‘ulot.
Funktsiya xosilasi.

Misol. $y=\ln tg\frac{x}{2}$ funktsiyaning hosilasini va $f'\left(\frac{p}{3}\right)$, $f'\left(\frac{p}{2}\right)$, $f'\left(\frac{p}{4}\right)$ qiymatlarini aniqlang.

YECHISH. Murakkab funktsiyadan hosila olish qoidasiga binoan:

$$y'=\frac{1}{tg\frac{x}{2}}\cdot\left(tg\frac{x}{2}\right)'=\frac{1}{tg\frac{x}{2}}\cdot\frac{1}{\cos^2\frac{x}{2}}\cdot\left(\frac{x}{2}\right)'=\frac{1}{2tg\frac{x}{2}\cdot\cos^2\frac{x}{2}}=\frac{1}{2\sin\frac{x}{2}\cdot\cos\frac{x}{2}}=\frac{1}{\sin x}$$

a) $f'\left(\frac{p}{3}\right)=\frac{1}{\sin\frac{p}{3}}=\frac{1}{\frac{\sqrt{3}}{2}}=\frac{2}{\sqrt{3}}=\frac{2}{3}\sqrt{3}$ b) $f'\left(\frac{p}{2}\right)=\frac{1}{\sin\frac{p}{2}}=\frac{1}{1}=1$

v) $f'\left(\frac{p}{4}\right)=\frac{1}{\sin\frac{p}{4}}=\frac{1}{\frac{\sqrt{2}}{2}}=\frac{2}{\sqrt{2}}=\sqrt{2}$

8-mashg'ulot.
Funktsiyani hosila yordamida to'la tekshirish.

Misol. $y=\frac{x^3+4}{x^2}$ funktsiyaning differentsial hisob usullari bilan tekshiring va bu tekshirish natijalaridan foydalanib uning grafigini yasang.

YECHISH. Tekshirishni quyidagi tartibda olib boramiz.

1. Berilgan funktsiya OX o'qining x=0 nuqtasidan tashqari barcha nuqtalarida aniqlangan, ya'ni

$$Dy=(-\infty;\ 0)\cup(0;\ +\infty)$$

2. Funktsiya juft ham emas, toq emas, davriy ham emas, chunki

$$f(-x)\neq f(x),\ f(-x)\neq -f(x) \text{ va } f(x+T)\neq f(x),\ T\neq 0$$

3. Egri chiziq abstsissa o'qi bilan $x=-\sqrt[3]{4}$ nuqtada kesishadi.
4. Aniqki, $\lim\limits_{x\to 0} y=\infty$, bundan esa x=0 chiziq, ya'ni OY o'q funktsiya grafigning vertikal asimptotasi ekani kelib chiqadi. Funktsiyaning og'ma asimptotasini aniqlaymiz.

$$\kappa=\lim_{x\to 0}\frac{f(x)}{x}=\lim_{x\to 0}\frac{x^3+4}{x^3}=\lim_{x\to 0}\left(1+\frac{4}{x^3}\right)=1$$

$$b=\lim_{x\to 0}[f(x)-kx]=\lim_{x\to 0}\left[\frac{x^3+4}{x^2}-x\right]=\lim_{x\to 0}\frac{4}{x^2}=0$$

Demak, og'ma asimptota tenglamasi y=kx+b formulaga asosan y=x. ekan.

5. Funktsiyaning ekstremumlari, o'sish va kamayish intervallari.

$$y=x+\frac{4}{x^2},\quad y'=1-\frac{8}{x^3}=\frac{x^3-8}{x^3}$$

Funktsiyaning kritik nuqtalarini topamiz. Buning uchun y`=0 tenglamani echamiz.

$$x^3-8=0,\qquad (x-2)(x^2+2x+4)=0,$$

x-2=0 $\Rightarrow$ x=2; $x^2+2x+4=0$ kvadrat tenglama haqiqiy ildizga ega emas, chunki $D=b^2-4ac=2^2-4\cdot1\cdot4=-12<0$. Demak, x=2 kritik nuqta. x=0 esa funktsiyaning uzilish nuqtasi. x=0 va x=2 nuqtalar sonlar o'qini $(-\infty;\ 0)$, (0; 2), $(2;\ +\infty)$ intervallarga ajratadi. $(-\infty;0)$ va $(2;\ +\infty)$ intervallarda y`>0 (masalan, y`(-1)=9>0, y`(3)=$\frac{19}{27}$>0), (0; 2) intervalda y`<0 (masalan, y`(1)=-7<0) bo'ladi. Bundan birinchi va uchinchi oraliqda funktsiya o'suvchi, ikkinchi oraliqda esa kamayuvchi bo'lishi kelib chiqadi. Funktsiyaning ikkinchi tartibli hosilasini kritik nuqtda ishorasini aniqlaymiz.

$$y''=\frac{24}{x^4},\qquad y''(2)=\frac{3}{2}>0$$

Demak, funktsiya x=2 nuqtada minimum qiymatga ega.

6. $x \in Dy$ uchun y``>0 bo‘lganligidan egri chiziq botiq bo‘ladi. Egilish nuqta mavjud emas.

7. Tekshirish natijalariga asoslanib funktsiya grafigini yasaymiz.



AMALIY MAShG‘ULOTLAR UCHUN MISOL VA MASALALAR

1-topshiriq.

Misollarda berilgan funktsiyaning aniqlanish sohasini toping va juft yoki toqligini tekshiring.

1.1 $f(x)=\sqrt{9-x^2}+\dfrac{1}{x-3}$; 1.2. $f(x)=\sqrt{x^2-16}+\lg(x-4)$;

1.3. $f(x)=\dfrac{x}{x^2-9}+\sqrt{x}$; 1.4. $f(x)=\sqrt{x+2}+\sqrt[4]{2-x}$;

1.5. $f(x)=\sqrt{x-1}+\sqrt{4-x}$; 1.6. $f(x)=1+\ln x+\sqrt{x^2-25}$;

1.7. $f(x)=\dfrac{2x}{x^2+2x-15}+\sqrt[3]{x}$; 1.8. $f(x)=\dfrac{1}{x^2-4}+\sqrt{x^2-4}$;

1.9. $f(x)=\lg(x-4)+\dfrac{1}{x-4}$; 1.10. $f(x)=\dfrac{x}{x+4}+\lg(x+4)$.

2-topshiriq.

Misollarda ko‘rsatilgan limitlarni hisoblang.

2.1. *а*) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^2-3x+3}{x^2-4x+3}$, *б*) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{n^2-5n+3}{2n^2+6n-9}$,

в) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin 3x}{tg 5x}$, *г*) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x-1}{x}\right)^{x-1}$.

2.2. *а*) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^6-1}{x^3-1}$, *б*) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{5-2x-3x^2}{x^2+x+3}$,

в) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tg\, ax}{\sin bx}$, *г*) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+2}{x}\right)^{x+4}$.

2.3. *а*) $\lim\limits_{x\to 3}\dfrac{x^2-2x-3}{x^2-5x+6}$, *б*) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{2x^3+2x+1}{3x^2-4x+2}$, в) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{4n+1}{4n}\right)^{n-5}$, г) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin px}{\sin 12x}$.

2.4. а) $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{2n^3+n-4}{3+n-4n^3}$, б) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{\sqrt{x+3}-2}{x-1}$

в) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tg^2 x}{5x^2}$, г) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{2x-2}{2x}\right)^{-x}$,

2.5. а) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{x^2-4x+4}{x^2-4}$, б) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{4x^2-10x+8}{10-11x-6x^2}$,

в) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{2x+2}{2x}\right)^{\frac{x}{2}}$, г) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin^2 x}{8x^2}$.

2.6. а) $\lim\limits_{x\to -2}\dfrac{x^3+8}{x^2+x-2}$, б) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{x+2}{x-2}\right)^2$,

в) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\sin 10x}{tg 30x}$, г) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{2x^2-3x+1}{3x^2+4x+4}$.

2.7. а) $\lim\limits_{x\to 2}\dfrac{x^2-5x+6}{x-2}$, б) $\lim\limits_{n\to\infty}\dfrac{10n+15n^2+100n^3}{6n^3+9n-100}$,

в) $\lim\limits_{x\to\infty}\left(\dfrac{8x-5}{8x}\right)^{-x}$, г) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{\ln(1+90x)}{x}$.

2.8. а) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{3x^2-5x-2}{2x^2-x-6}$ б) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{2x^2-3x+1}{3x^2+4x+4}$

в) $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{9n+10}{9n}\right)^{-n}$, г) $\lim\limits_{x\to 0}\left[\dfrac{1}{x}\ln(1+80x)\right]$.

2.9. а) $\lim\limits_{x\to -1}\dfrac{x^2-10x-11}{x^2-1}$, б) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{(x-2)^2}{x^2+8x-9}$,

в) $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{n-4}{n}\right)^{n+8}$, г) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{1+\cos x}{x^2}$.

2.10. а) $\lim\limits_{x\to 1}\dfrac{x^2-3x+2}{x-1}$, б) $\lim\limits_{x\to\infty}\dfrac{x^2-10x+11}{(x+2)^2}$,

в) $\lim\limits_{x\to 0}\dfrac{tg^2 x}{x\sin 2x}$, г) $\lim\limits_{n\to\infty}\left(\dfrac{8n-4}{3n}\right)^{8n}$.

3-topshiriq.

Misollarda $y=f(x)$ funktsiya va x argumentning ikkita x_1, x_2 qiymati berilgan. Argumentning berilgan qiymatlarida funktsiyaning
1) uzluksiz yoki uzulishga ega ekanini aniqlang:
2) uzulish nuqtalarida bir tomonli limitlarni hisoblang;
3) Sxematik chizmasini chizing.

3.1. $y=\dfrac{4x}{x-1}, \qquad x_1=1, \qquad x_2=3$

3.2. $y=\dfrac{4x}{x-2}, \qquad x_1=2, \qquad x_2=5$

3.3. $y=\dfrac{4x}{x-4}, \qquad x_1=-2, \qquad x_2=4$

3.4. $y=\dfrac{x}{x-3}, \qquad x_1=-2, \qquad x_2=3$

3.5. $y=\dfrac{5x}{x-5}, \qquad x_1=-1, \qquad x_2=5$

3.6. $y=\dfrac{5x}{x+1}, \qquad x_1=-1, \qquad x_2=3$

3.7. $y=\dfrac{4x}{3+x}, \qquad x_1=-3, \qquad x_2=1$

3.8. $y=\dfrac{4x}{x+2}, \qquad x_1=-2, \qquad x_1=2$

3.9 $y=\dfrac{5x}{x+4}, \qquad x_1=-4, \qquad x_2=4$

3.10 $y=\dfrac{4x}{x+5}, \qquad x_1=-5, \qquad x_2=5$

4-topshiriq.

Misollarda differentsiallashning asosiy qoidalaridan foydalanib, $y=f(x)$ funktsiyaning hosilasini toping, xususiy qiymatlarini hisoblang.

4.1.a) $f(x)=(x-2)^4 \quad ; \qquad f'(0), \quad f'(2), \quad f'(-2), \quad f'(p)$

b) $y=e^{\sqrt{x}}(x^2+3x)$ v) $y=\sqrt{1-x^2}+x\cdot\sin x$

g) $y=\ln\dfrac{x-1}{2x+1}$

4.2. a) $f(x)=(x+1)^3$; $f'(0)$, $f'(1)$, $f'(-1)$, $f'(a+b)$

b) $y=\sqrt{\sin 2x}$, v) $y=e^{3x}\sin x$ g) $y=tg\left(\sqrt{x^2-2}\right)$

4.3. a) $f(t)=t^3-2t-e^{2t}$; $f'(0)$, $f'(1)$, $f'(-1)$, $f'(\ln 2)$

b) *y=lnsinx+e^{2x}* v) $y = arctg\sqrt{x-1}$ g) *y=sin²(2x+3)*

4.4. a) $s(t) = qt^2/2;$ $s'(0),$ $s'(1),$ $s'(\sqrt{2}),$ $s'(5)$

b) $y = (1-\cos x)\sin 2x$, v) $y = \dfrac{1+xarctgx}{\sqrt{1+x}}$, g) $y = x^3 e^{\frac{1}{x}}$

4.5. a) $s(t)=t^2+5t-8;$ $s'(0),$ $s'(-1),$ $s'(a),$ $s'(a+b)$

b) $y=arcsin2x,$ v) $y=x^2tgx,$ g) $y = \sqrt{1+\dfrac{1}{x}}$

4.6. a) $j(t) = 3t^2+4t+1,$ $j'(1),$ $j'\left(\dfrac{1}{2}\right),$ $j'(-1),$ $j'(p)$

b) $y = \sqrt{(x-1)^3}$, v) $y = e^x - 3x^2 \ln x$, g) $y = \dfrac{e^x \sin x}{x}$

4.7. a) $f(j) = \sin j + \cos^2 j;$ $f'\left(\dfrac{p}{4}\right),$ $f'\left(-\dfrac{p}{4}\right),$ $f'\left(\dfrac{p}{2}\right)$

b) $y = \dfrac{e^x+1}{e^x-1}$ v) $y = \arcsin\sqrt{3x}$ g) $y = \ln\dfrac{\sqrt{a^2+x^2}}{\sqrt{a^2-x^2}}$

4.8. a) $j(s) = 2s^3+3s^2-4;$ $j'(0),$ $j'(-1),$ $j(\sqrt{2})$

b) $y = \dfrac{x-\sin x}{\sqrt{x}}$ v) $y = arctgx - \dfrac{1}{x}$ g) $y = \ln\left(e^{2x}+1\right)$

4.9. a) $y = \dfrac{x^3}{e^x}$ b) $y = \cos^2 x^3$

v) $f(x) = 3x^3-5x^2+3;$ $f(0),$ $f'\left(\dfrac{p}{2}\right),$ $f'\left(-\dfrac{p}{2}\right)$

g) $y = \ln(\ln x)$

4.10. a) $j(x) = ctg^2 x + \sin^2 x;$ $j'(0),$ $j'\left(\dfrac{p}{4}\right),$ $j'\left(-\dfrac{p}{4}\right)$

b) $y = \sqrt{1+\sin^2 4x}$, v) $y = arctg^2 x$ g) $y = e^x\sqrt{1-e^{2x}}$

5-topshiriq.

Masalalarda funktsiyalarni differentsial hisob metodlari bilan tekshiring va bu tekshirish natijalaridan foydalanib, ularning grafiklarini yasang. Bu masalalarda funktsiyani tekshiring deganda quyidagi ishlarni bajarish ko‘zda tutiladi.

1. Funktsiyaning aniqlanish sohasini topish.
2. Funktsiyaning juft toqligini, davriyligini aniqlash.
3. Funktsiya grafigining koordinata o‘qlari bilan kesishish nuqtalarini topish.
4. Funktsiya uzluksizligini tekshirish (uzilishga ega bo‘lsa, uzilish nuqtalari va uzilish turini aniqlash) egri chiziq asimptotalarini topish.
5. Funktsiya ekstremumlarini topish, uni o‘sish, kamayish intervallarini aniqlash.
6. Qavariqlik, botiqlik intervallarini aniqlash, egilish nuqtalarini topish.
7. Yuqoridagi chiqarilgan xulosalardan foydalanib, funktsiya grafigini chizing.

5.1. $y=\frac{x^2+1}{x}$ 5.2. $y=\frac{1}{1+x^2}$ 5.3. $y=\frac{(x-1)^2}{1+x^2}$

5.4. $y=\frac{x^3+1}{x^2}$ 5.5. $y=e^{\frac{1}{x}}$ 5.6. $y=\frac{x}{3-x^2}$

5.7 $y=\frac{1}{1-x^2}$ 5.8. $y=\left(\frac{x+1}{x-1}\right)^2$ 5.9. $y=xe^{-x}$

5.10. $y=x\ln x$

INTEGRAL XISOB

9-mashg’ulot.
Boshlang’ich funktsiya va aniqmas integralni hisoblash.

Misol. Quyidagi aniqmas integralni hisoblang.

a) $\int\frac{\sin 2x}{\sqrt{3-\cos^4 x}}dx$ b) $\int\left(2\sin\frac{x}{2}+3\right)^2\cos\frac{x}{2}dx$

v) $\int x\sin xdx$

YeCHISh.

a) $c’s^2x=t$ desak, - 2 c’sx sinx dx = dt; sin2x dx = - dt bo‘ladi, u holda

$$\int\frac{\sin 2x}{\sqrt{3-\cos^4 x}}dx=-\int\frac{dt}{\sqrt{3-t^2}}=-\arcsin\frac{t}{\sqrt{3}}+C=-\arcsin\frac{\cos^2 x}{\sqrt{3}}+C$$

bo‘ladi, bunda S=c’nts

b) $2\sin\frac{x}{2}+3=t$ desak, $\cos\frac{x}{2}dx=dt$ bo‘ladi, u holda

$$\int\left(2\sin\frac{x}{2}+3\right)^2\cos\frac{x}{2}dx=\int t^2dx=\frac{1}{3}t^3+C=\frac{1}{3}\left(2\sin\frac{x}{2}+3\right)^3+C$$ bo‘ladi.

v) $u=x$, $dv=\sin xdx$ desak, $du=dx$, $v=-\cos x$ bo‘ladi.

U holda bo‘laklab integrallash qoidasiga binoan

$$\int x\cdot\sin xdx=x\cdot\cos x+\int\cos xdx=-x\cdot\cos x+\sin x+C$$ bo‘ladi.

Misol. Eng sodda bo‘lgan ratsional kasr ko‘rinishidagi funktsiyalar integrallari uchta tipi quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\int \frac{A}{x-a}dx = A\ln|x-a| + C$$

$$\int \frac{A}{(x-a)^m}dx = \frac{A}{1-m}\ \frac{1}{(x-a)^{m-1}} + C$$, m - natural son, $m¹1$

$$\int \frac{dx}{x^2+p10+q} = \frac{2}{\sqrt{4q-p^2}} arctg\ \frac{2x+p}{\sqrt{4q-p^2}} + C$$, bunda r^2*-4q < 0*

Masalan, $\int \frac{dx}{2x^2-2x+3}$

Ko‘rinishdagi integralni hisoblash uchun uni uchinchi tipdagi integral ko‘rinishga keltiramiz.

$$\int \frac{dx}{2x^2-2x+3} = \frac{1}{2}\int \frac{dx}{x^2-x+\frac{3}{2}} = \frac{1}{2}\int \frac{dx}{\left(x-\frac{1}{2}\right)^2+\left(\frac{3}{2}-\frac{1}{4}\right)} = \frac{1}{2}\int \frac{d\left(x-\frac{1}{2}\right)}{\left(x-\frac{2}{2}\right)^2+\left(\frac{\sqrt{5}}{2}\right)^2} =$$

$$= \frac{1}{2}\cdot\frac{2}{\sqrt{5}} arctg \frac{x-\frac{1}{2}}{\frac{\sqrt{5}}{2}} + C = \frac{1}{\sqrt{5}} arctg \frac{2x-1}{\sqrt{5}} + C$$

Undan tashqari ratsional kasrlar maxrajini ko‘paytuvchilarga ajratib integrallash usuli ham bor. Bu usulni

$$\int \frac{x^2+2x+6}{(x-1)(x-2)(x-4)}dx$$

ko‘rinishdagi integralni hisoblashda qo‘llaymiz.

Kasr maxrajidagi *(x-1), (x-2), (x-4)* ikki hadlar birinchi darajali bo‘lgani uchun integralni 1-tipdagi integral ko‘rinishiga keltirish mumkin. Ya’ni:

$$\frac{x^2+2x+6}{(x-1)(x-2)(x-4)} = \frac{A}{x-1} + \frac{B}{x-2} + \frac{C}{x-4}$$

A,B,C noma’lum koeffitsientlar deb, ularni aniqlaymiz.

$x^2+2x+6=A(x-2)(x-4)+B(x-1)(x-4)+C(x-1)(x-2)$ bundan esa.

$x^2+2x+6=A(x^2-6x+8)+B(x^2-5x+4)+C(x^2-3x+2)$ o‘ng tomondagi ifodani x ning darajalari bo‘yicha gruppalab chiqsak,

$x^2+2x+6=(A+B+C)x^2+(-6A-5B-3C)x+(8A+4B+2C)$ x - ning bir xil darajalari oldida turgan koeffitsientlarni bir-biriga tenglab,

$$\begin{cases} A+B+C=1 \\ -6A-5B-3C=2 \\ 8A+4B+2C=6 \end{cases}$$

sistemaga kelamiz.

Bu sistemani echib A=3, B=-7, S=5 ekanini topamiz.

Shunday qilib

$$\frac{x^2+2x+6}{(x-1)(x-2)(x-4)}=\frac{3}{x-1}-\frac{7}{x-2}+\frac{5}{x-4}$$

Tenglikni ikkala tomonini integrallab,

$$\int\frac{x^2+2x+6}{(x-1)(x-2)(x-4)}dx=3\int\frac{dx}{x-1}-7\int\frac{dx}{x-2}+5\int\frac{dx}{x-4}=$$

